



CHARACTERISTICS OF CHINESE SHARIA

Tojiboyev Islom Odil o'g'li¹, Ochilova Hilola Husanovna²

¹ Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages

islomtojiboyevodilovich@gmail.com, ² Samarkand State Institute of Foreign Languages hilolaochilova90@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5046381>

ARTICLE INFO

Received: 15th June 2021

Accepted: 20th June 2021

Online: 25th June 2021

KEY WORDS

Chinese Poetry, Book of Songs, Anthology of Tan Poetry, Contemporary Chinese Poetry, Poetic Symbols, Li Bo and Du Fu.

ABSTRACT

In this article, the description of poetry, the place of Chinese poetry in the world, the important heritage of the "Book of Songs", the role of poetry, poetry, flourishing in the Dynasty, He briefly spoke about the four eras, the images in his poetry, and the world-famous Chinese poets.

XITOIY SHE'RIYATINING O'ZIGA XOS TOMONLARI

Tojiboyev Islom Odil o'g'li¹, Ochilova Hilola Husanovna²

¹ Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

islomtojiboyevodilovich@gmail.com, ² Samarqand davlat chet tillar instituti hilolaochilova90@gmail.com

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-iyun 2021

Ma'qullandi: 20-iyun 2021

Chop etildi: 25-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

Xitoy she'riyati, "Qo'shiqlar kitobi", Tan she'riyat antologiyasi, zamonaviy xitoy she'riyati, she'riy timsollar, Li Bo va Du Fu.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada she'riyat tavsifi, Xitoy she'riyati dunyodagi o'rni, "Qo'shiqlar kitobi" muhim meros ekanligi, Sulolalar davrida she'riyatning, nazmning o'rni, gullab-yashnashi, Tan she'riyatida an'anaviy ravishda to'rt davri, she'riyatidagi tasvir timsollari, Xitoyning dunyoga mashhur she'riyat arboblari haqida qisqacha to'xtalib, ba'zi ma'lumotlar berib o'tildi.

She'riyat manaviy dunyoyimizning muhim bir qismidir. She'r – badiiy ijodning his-tuyg'ularga boy eng nafis namunasi desak yanglishmagan bo'lamiz. She'riyatda xalqning madaniy va manaviy taraqqiyot darajasi, o'ziga xosligi, tilining qudrati, iste'dod va iqtidorining mavqei

mujassamlashgan bo'ladi. She'riyatda katta umumlashtiruvchi kuch mavjud. Bir band she'rda bir olam ma'no ifodalanishi mumkin. Chunki she'r inson kechinmalari, kayfiyati va ichki dunyosini, tuyg'u-hissiyotlarini to'laroq va chuqurroq bayon qila oladi, kishining qalbiga juda tez kirib



boradi. Shuning uchun she'r estetik ta'sir o'tkazuvchi beqiyos katta kuch-qudratga, ulkan tarbiyaviy ahamiyatga molik san'atdir. Fikr she'rda tuyg'ular, ehtiroslar va barqaror intonatsiyalar orqali uyushib yuzaga keladi. Intonatsiya she'rdagi har bir so'zni o'ziga tobe' qilib, uning ta'sir kuchini oshiradi, mazmunni kitobxon ruhiga ta'sir ettirib, yorqinroq ro'yobga chiqaradi.

Xitoy she'riyati dunyodagi eng qadimgi milliy durdonalaridan biridir. Tarixi uch ming yilliklarga taqaladigan an'anaviy xitoy she'riyati Shī (xitoycha 诗), Cí (xitoycha 词) va Qū (xitoycha 曲) va Fù (xitoycha 赋) kabilarga bo'linadi. Xitoy milliy she'riyatining o'ziga xos jihati, ularning she'rlarida milliyliigi, qadriyatlar va shu kabilar yaqqol namoyon bo'ladi. Bu esa so'zsiz o'z qadriyatlariga, an'analariga sodiq ekanlini ko'rsatadi. Bundan tashqari 20-asrning birinchi choragidan boshlab G'arb an'analariga asoslangan xitoy she'riyat ham vujudga keldi. Xitoy she'riyatining barcha an'anaviy shakllari qofiyalangan bo'lishiga qaramasdan, qadimgi Xitoydagi barcha qofiyali matnlar she'r deb tasniflanmagan. Ba'zi kitoblardagi satrlar ko'pincha qofiyalangan, ammo bu she'riyat deb hisoblanmagan.

"Qo'shiqlar kitobi" xitoy she'riyatining ilk muhim namunasi hisoblanadi, unda aristokratik she'rlar ("Qo'shiqlar kitobi" ning ikkinchi va uchinchi qismlarida to'plangan odatlar) va realistik, ko'pincha ijtimoiy ayblovli xalq qo'shiqlari (birinchi qism ") mavjud bo'lgan [2, 118].

Xan sulolasi davrida Fù (xitoycha 赋) janri sezilarli darajada rivojlandi. Olti sulola davrida Fù she'riyatning asosiy janri bo'lib qoldi, Shī (xitoycha 诗) va Fù

(xitoycha 赋) she'riy janrlari Tan sulolasi hukmronligi o'rnatilgunga qadar Xitoy she'riyatining asosiy negizi bo'lib qolaverdi.

Tan sulolasi davrida xitoy she'riy merosi hisoblangan 2300 shoir qalamiga mansub 48900 ga yaqin she'riy asarlarni o'z ichiga olgan Kangsi imperatori davrida yaratilgan 900 jildlik "Tan she'riyat antologiyasi" yaratilgan. [3, 3-72]. Tan she'riyatida an'anaviy ravishda to'rt davr ajratilgan:

- boshlang'ich (618-712);
- gullab-yashnagan (713-766);
- o'rta (767-835);
- kech (836-907).

Dastlabki davrning ko'zga ko'ringan vakillari Vang Bo, Yang Dzion, Lu Chjaolin va Luo Binvang; gullab-yashnagan davr - Li Bo va Du Fu; o'rta davr - Bo Juyi va Yuan Chjen; kech davr - Ven Tingyun va Vey Chuanglar.

Tan sulolasi she'riyatining so'nggi davrida Cí (xitoycha 词) janridagi lirik she'riyat rivojlandi. Cí (xitoycha 词) ilgari mavjud bo'lgan kuyga mos keladigan yangi so'zlar edi. Sun sulolasidan keyin sanqu (xitoycha 散曲) janridagi xitoy she'riyati rivojlanib, yangi ommabop qo'shiqlarga asoslangan erkin shaklga aylandi.

Klassik xitoy she'riyatida xitoy tilida "diangu" (xitoycha mashq 典故) deb ataladigan, qadimgi matnlardan olingan iboralar mavjud. "Diangu" ning mavjudligi she'rlarni tushunishni jiddiy ravishda qiyinlashtirdi va bu o'rganuvchidan katta bilim talab qilar edi.

Zamonaviy xitoy she'riyatida (新诗 - "yangi she'riyat") odatda an'anaviy shakli o'rniga erkin she'rdan (xitoycha mashq 自

由 诗) ko`proq va unumliroq foydalanishmoqda [3, 51-54]. Shunga qaramasdan "Yangi she'riyat" yo`nalishi an'anaviy uslubni to'liq siqib chiqarmadi. XXR tashkil topgandan keyin ham (1949-yil) qadimgi xitoy she'rlarining an'anaviy uslubida she'r yaratadigan shoirlar ham bo`lgan, ulardan biri Mao Szedun hisoblanadi.

Xitoy mumtoz she'riyatining yana bir muhim jihati uning boshqa shakllari bilan o'zaro aloqadorligidir, ular Xitoy madaniyati, [Xitoy san'ati](#), [Xitoy rasmlari](#), [Xitoy xattotligi va shu kabilar](#). Klassik xitoy she'riyati butun dunyo she'riyatiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.



OQAR SUVLAR JILVALANAR

Oqar suvda jilvalanar
Kuzgi oy aksi.
Janubdagi ko`lni quchgan
Sukut nafasi.

Nilufargul meni g`amdan
Etmoqchi ogoh.
Toki mening dilimdayam
Bo`lsin mungli ox.
(Xurshid davron tarjimasi)



O'zlarining ramziyligiga ega gullar va o'simliklar bilan bir qatorda, gullarning rangi ham Xitoy madaniyatida alohida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Misol uchun, pushti va qizil ranglar - bayram, omad va baxt kabi ma'nolarni anglatadi.

Endilikda Xitoy she'riyatidagi tasvir timsollariga ozgina to'xtalib o'tsak. O'zimizning o'zbek tilida ham bunday timsollarga misollar talaygina. Masalan, oqqush, bulbul, qaldirg'och va hu kabilar. Xitoy she'riyatida g'ozlar muhim tasvir timsollaridan biridir. Ular she'riyatda muhim o'rin tutadi. Bularni [Li Bai](#), [Vang Vey](#), va [Du Fu](#) ijod namunalarida ham ko'rishimiz mumkin, ayniqsa [Sun sulolasi davri she'riyatida](#). G'ozlar tasvirini she'rga kiritish orqali turli xil she'riy tushunchalarni ochib berish mumkin edi. Odatda g'ozlarning ikki turini, uy g'ozi va yovvoyi g'ozni ajratib ko'rsatadilar. Yovvoyi g'oz she'riyat uchun muhimroq timsol hisoblanadi. Xitoy she'riyatida g'ozlardan tashqari boshqa qushlar, timsollar nomlari ham mavjud. Ba'zilar mifologik, ba'zilar esa majoziy. Masalan, Xitoyning eng buyuk she'riyat vakillaridan biri Li Bo ijodida yomg'ir, daryo, dengiz suvlari ifodalangan. Xitoy madaniyatida bu o'zgarish, burilish ma'nolarini anglatadi. Li Bo she'rlarida suv obrazi yo'qotish timsolida qo'llanilgan. Daryolarni ko'z yoshlari timsolida ifodalaydi. "Ikki farzandimni Shatsiuga jo'natib" she'rida "ko'z yoshim to'kaman bahorlar kabi"

jumlasini keltirib, ayriliqdagi qiynoqlarini tasvirlaydi. Du Fu esa suvni urush va ijtimoiy adolatsizlik timsolida tasvirlagan. Bular Du Funing "Bahor oqshomida yomg'ir" keltirib o'tilgan [1, 90-92] O'zimizning milliy adabiyotimiz namoyondasi hisoblangan Umar Hayyom ijodida may timsoli asosiy o'rin egallaydi. Birinchi navbatda Umar Hayyom o'z she'rlarida hayot quvonchlari, muhabbat his-tuyg'ulari va may keltiradigan xursandchiliklarni ifodalasa, ikkinchi davrda xursandchilik bilan bir qatorda g'am-qayg'u o'rin almashinishi, bu dunyoning barcha quvonchlari ham, hasratlari ham o'tkinchi ekanligi va hayot buyuk bir girdobni eslatishini tasvirlaydi [5]. Xitoy adabiyotida esa bu Du Fu ijodida namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Du fu ijodida "may" hayotining tushkun voqealarini ifodalagan. Masalan "Yolg'iz o'zim may ichaman" she'rida Davlat imtixonlaridan yiqilganini, endi orzularidagi xalq uchun farovon va ozod hayotni qura olish imkonini boy berganligini kuyunib yozgan. U "may"ni hayot iztiroblaridan qochish sifatida ko'radi.

Li Bo, Du Fu va barcha shoirlari, ijodkorlari ko'pinch "erkinlik, ezgulik" mavzusida ijod qilgan, o'zgacha tasavvur dunyosiga ega bo'lishgan, o'zgacha uslub, beqiyos va boy badiiy mahoratga ega bo'lgan, nafaqat Xitoy xalqining balki, dunyoning eng buyuk mard va tanti ijodkorlaridan hisoblanishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonova Dilafruz Azimjon qizi LI BO va DU FU she'riyatining lingvopoetik xususiyatlari tahlili 5a 5120102-Lingvistika Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent - 2016
2. [The Princeton Handbook of World Poetries](#) (англ.) / Edited by Roland Greene, Stephen Cushman. — Princeton University Press, 2017.
3. [Федоренко Н.](#) Китайская поэзия (рус.) // Антология китайской поэзии / Перевод с китайского под общей редакцией [Го Мо-Жо](#) и [Н. Т.](#)



Федоренко. — М.: Государственное издательство художественной литературы, 1957.

4. G'ulomova Nilufar Xikmatilla qizi "She'riy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari (xitoy tilidan tarjima qilingan she'rlar asosida)" 5120200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo'yicha) yo'nalishi, Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan BITIRUV MALAKAVIY ISHI, Toshkent – 2014
5. <https://forum.ziyouz.com/>
6. <https://ziyouz.uz/>
7. <https://ru.wikipedia.org/>
8. <https://navoiy-uni.uz/>